

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**QULBOSHEV SIROJIDDIN JUMAYEVICH**

**SURXON-SHEROBOD VOHASIDA YANGI YERLARNI O‘ZLASHTIRISHDA  
SOVET HUKUMATINING KO‘CHIRISH SIYOSATI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Qulboshev Sirojiddin Jumayevich**

Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o‘zlashtirishda sovet hukumatining ko‘chirish siyosati.....5

**Кулбошев Сирожиддин Жумаевич**

Переселенческая политика советского правительства в освоении новых земель в Сурхан-Шерабадском оазисе.....23

**Qulboshev Sirojiddin Jumaevich**

Resettlement policy of the Soviet government in the development of new lands in the Surkhan-Sherabad oasis.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**QULBOSHEV SIROJIDDIN JUMAYEVICH**

**SURXON-SHEROBOD VOHASIDA YANGI YERLARNI O‘ZLASHTIRISHDA  
SOVET HUKUMATINING KO‘CHIRISH SIYOSATI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2021.1.PhD/Tar859 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)) amda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xolmuminov Xusan Eshmuminovich**  
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Tursunov Saypulla Narzullayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**G'afforov Shokir Safarovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**


**Andijon davlat pedagogika instituti**


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» oktyabr soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998762231311; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (326 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» oktyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil «15» oktyabr dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**T.R. Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
tarix fanlari doktori (DSc), professor

  
**O.A. Xamidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

  
**F.Sh. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari  
doktori (DSc), professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Globallashayotgan dunyoda demografik jarayonlar va migratsiya siyosatlari davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro miqyosda hududiy salohiyatini oshirishda yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Yangi yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi bazasini kengaytirish mahalliy aholi turmush sharoitini yaxshilash, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (EKOSOS) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida davlatlar o'rtasida insonlarning asosiy oziq-ovqat, boshpana va tibbiy xizmat kabi kundalik ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, barqaror ish o'rinlari va xavfsiz yashash muhiti kabi qulay hayot sharoitlariga ega bo'lgan hududlarga ko'chib o'tish an'anasi kuchayib bormoqda. XX asrda yuz bergan industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlari, shuningdek, aholi zichligidagi o'zgarishlar migratsiya siyosatini faollashtiruvchi asosiy omillardan biri bo'ldi. Ayniqsa, 1950–1980-yillarda qishloq xo'jaligi hududlarini rivojlantirish va mahsulot yetishtirish hajmini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ko'chirish siyosati doirasida Surxon-Sherobod vohasida izchil tadbirlar olib borildi. Xususan, yangi kolxoz va sovxozlarni tashkil etish, sug'orish tizimini barpo etish, aholi mehnat salohiyatidan samarali foydalanish kabi chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

Dunyoning rivojlangan davlatlarining yirik ilmiy markazlarida hududiy rivojlanish, migratsiya jarayonlari va demografik siyosatga oid ma'lumotlar ilmiy tahlil qilinib, ushbu tadqiqotlarda XX asrning o'rtalarida amalga oshirilgan yirik ko'chirish loyihalarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini chuqur o'rganilmoqda. Tadqiqotlar davomida markaziy boshqaruv organlarining mahalliy aholiga nisbatan olib borgan migratsion siyosati, yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida aholini joylashtirish amaliyoti, ishlab chiqarish resurslarini markaz manfaatlari yo'lida safarbar etish, shuningdek, hududlarning demografik tarkibini o'zgartirishga qaratilgan choralar tahlil etilmoqda. Xususan, Sovet hukumatining Surxon-Sherobod vohasida amalga oshirgan ko'chirish siyosatidan asosiy maqsad — yangi yerlarni agrar ishlab chiqarishga jalb etish, strategik ahamiyatga ega hududlarda aholi sonini ko'paytirish va resurslardan markaziy rejalar asosida foydalanish bo'lganligi, bu esa ko'plab ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga olib kelgani bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamli tarixiy-ilmiy izlanishlar mamlakatimiz tarixining barcha davrlarini, jumladan, XX asrning ikkinchi yarmida Surxon–Sherobod vohasida amalga oshirilgan yirik agrar siyosat jarayonlarini ham qamrab olmoqda. Sovet davrida yangi yerlarni o'zlashtirish va melioratsiya ishlari bilan bir qatorda, keng ko'lamli ichki migratsiya va ko'chirish siyosati amalga oshirilib, bu jarayonda voqea demografik tarkibi, ijtimoiy-madaniy muhit va xo'jalik tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda ushbu jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish, migratsion siyosatning mazmun-mohiyatini anglash va hududning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotiga ta'sirini tahlil etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Zero, "O'tmishdagi yutuq va g'alabalaridan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan

xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi” deb ta’kidlaydi Prezidentimiz<sup>1</sup>.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 16-oktyabrdagi PQ-4864-son “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyat, ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” dasturining ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o‘zlashtirishda sovet hukumatining ko‘chirish siyosati mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq barcha adabiyotlarni quyidagi ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq:

**Birinchi guruhga** kiruvchi adabiyotlar – sovet hukumati hukmronligi yillarida nashr etilgan bo‘lib, bu davr adabiyotlarida hukmron mafkura – kommunistik partiyaning g‘oyalari ustuvor bo‘lganligi sababli, ko‘chirish siyosatining sabablari, jarayoni va natijalari ko‘pincha bir tomonlama, ideologik nuqtai nazardan bayon etilgan. Tanqidiy tahlil va muqobil qarashlar deyarli uchramaydi<sup>2</sup>.

**Ikkinchi guruhga** oid adabiyotlar mustaqillik yillarida yaratilgan bo‘lib, ularda xususan, bu davr asarlarida respublikada yangi irrigatsiya loyihalari orqali yerlarning o‘zlashtirilishi, paxta monokulturasining iqtisodiyot va ekologiyaga salbiy ta’siri, shuningdek, bu siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan majburiy migratsiya, demografik o‘zgarishlar va ijtimoiy muammolarning ayrim jihatlari ochib berilgan<sup>3</sup>. Mavjud

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” боғи ва Мустақиллик монументи очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2021 йил 31 августъ. <https://president.uz/uz/lists/view/4594>

<sup>2</sup> Муллажонов И.Р. Ўзбекистон аҳолисининг миграцион алоқалари. – Т.: Ўзбекистон КПКМ Бирлашган нашр, 1967; Муллажонов И.Р. Ўзбекистон аҳолиси. Справочник. – Т.: Фан, 1967; Рўзиев А. Сурхон-Шеробод қишлоқ хўжалиги. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1967; Бичков Д.А., Блинников Л.И. Сурхондарё области. II (Қисқача справочник). – Ташкент: “Ўзбекистон”, 1970; Раҳмонқулов Х., Давхонов С. Гуллаб-яшнаётган Сурхондарё. – Тошкент: “Билим”, 1974; Чориев А., Очилов М. Сурхондарё области. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1974; Каримов А. Чўл ва одамлар. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1978; Асонов Г.Р. Аҳоли ўсиши ва ҳаёт ресурслари. – Т.: Ўзбекистон, 1970; Халиков И. История развития ирригации и орошаемого земледелия в Сурхан-Шерабадской долине (1959-1970 гг.): Автореф. дисс.канд. истор. наук. – Ташкент, 1971; Халиков И. История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Ташкент: Фан, 1977; Джалилов Х. М. Экономические проблемы развития хлопководческих совхозов в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1971; Сафаров И. Народонаселение Сурхандаринской области (Демограф и геогр. анализ): Автореф. дисс. канд. геогр. наук. – Т., 1974; Мулладжанов И.Р. Социально-экономические основы развития и размещения народонаселения Узбекистана. (1965-1985 гг.), Автореф. дисс. док. эконом. наук. – Т., 1985; Максакова Л.П. Миграция населения Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1986; Ташпулатов Х. Сотрудничество народов СССР в орошении и освоении новых земель на юге Узбекистана (1971-80 гг). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т., 1987; Шукуров И. Уч авлод қувончи. – Т.: Мехнат, 1989.; Максакова Л.П. Демографические проблемы занятости в Узбекской ССР. – Т.: Узбекистан, 1989.

<sup>3</sup> Бердиев Х. Биринчи одам вилояти. – Т.: “Нур” ижодий ишлаб чиқариш бирлашмаси, 1991; Мирзаев З. Культурная жизнь села Узбекистана: состояние, особенности и проблемы (60 с-Середины 70-х годов): Автореф. ... дисс. док. ист. наук. – Т., 1991; Турсунов С.Н. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожланишининг шартлари ва пасайиш

tadqiqotlarning tarixshunoslik tahlili shundan dalolat beradiki, Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirishda sovet hukumatining ko'chirish siyosati maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi:** Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD-1 "O'zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va ma'naviy madaniyat" mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirishda sovet hukumatining ko'chirish siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Sovet hukumatining O'zbekiston SSRda paxta monokulturasini chuqurlashtirish bo'yicha olib borgan siyosatining uzoq muddatli strategik maqsadlarini aniqlash va ochib berish;

Surxon-Sherobod vohasida paxta yakkahokimligining shakllanish tarixini o'rganish va bu jarayonning mintaqa iqtisodiyoti va aholisining ijtimoiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilish;

Surxon-Sherobod cho'l zonasining tarkibiy qismi bo'lgan Beshqo'ton massivining o'zlashtirilishi jarayoniga bog'liq migratsion jarayonlarni ochib berish;

Sherobod cho'llarini o'zlashtirish bilan bog'liq aholini ko'chirish siyosatini o'rganish;

Qiziriq massivini o'zlashtirilishi bilan bog'liq demografik o'zgarishlarni yoritib berish;

yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirib keltirilgan aholining ijtimoiy ahvoli va maishiy ta'minotini yoritib berish;

yangi tashkil etilgan paxtakor rayonlarda ta'lim-tarbiya va madaniy oqartuv muassasalarining faoliyatini tahlil etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Sovet hukumatining Surxon-Sherobod vohasini o'zlashtirish bilan bog'liq ko'chirish siyosatini misolida belgilangan.

---

омиллари (1946-1965 йй.) – Тошкент: “Фан”. 1994; Турсунов С.Н. Қишлоқ аҳолисининг уй-жой маиший шароитларини яхшилаш муаммолари (1946-1965 йй.) – Тошкент, 1994.; Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Т.: Фан, 1995; Ата-Мирзаев О. Ўзбекистон аҳолиси: демографик вазият ва сиёсат. // Иқтисод ва ҳисобот. 1996. 8-сон; Бўриева М. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т.: Университет, 1997; Бабаджанова Д.Б. Социально-экономические аспекты межнациональных отношений в Узбекистане (70-е середина 80-х гг). Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Т., 1997; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Т.: Медицинская литература им. А.А. Ибн Сина, 1998; O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Т.: Университет, 2002; Tursunov S.N., Qobilov E.O. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Т.: Sharq, 2004; Bobojonova N. Totalitar tuzumning kam sonli millatlarga nisbatan olib borgan siyosati (1930-1960 yy.) // Ijtimoiy fikr 2004 y. № 3; Yunusova X. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlarini. (XX asr 80 yillari misolida). – Т.: Zarqalam, 2005. Xolmuminov X. O'zbekistonda sovet mustamlakachiligi siyosatining migratsion jarayonlarga ta'siri (janubiy viloyatlar misolida 1946-1990 yy.). tarix. fan. nom. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2007.; Ochilov F. XX asrning 50-60 yillarida O'zbekistonning ijtimoiy ahvoli va muammolari (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida). Tar. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011; Pardayev T.R. O'zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1945-1991 y.). tarix. fan. dokt. DSc diss. avtoreferati. – Termiz, 2021.; Turapova M. O'zbekiston janubiy hududlarida demografik jarayonlar (XIX asrning II yarmidan – XX asrning I yarmigacha). tarix. fan. bo'y. PhD. avtoreferati. – Termiz, 2021.

**Tadqiqotning predmetini** Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirishda sovet hukumatining ko'chirish siyosati bilan bog'liq o'zgarishlar, kamchiliklar va muammolarni o'rganish xususiyatlarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiylik, xronologik ketma-ketlik, tizimli yondashuv, xolislik, haqqoniylik, statistik, qiyosiy tahlil va og'zaki tarix kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Sovet hokimiyatining qo'riq, bo'z yerlarni o'zlashtirishda Boysun, Oltinsoy, Denov rayonlaridagi tog', tog'oldi hududlari aholisining majburiy ko'chirish siyosatidan maqsad aholi o'rtasidagi ishsizlik, iqtisodiy qashshoqlikni oldini olish ekanligi, ularni uy-joy, o'qish, sog'lig'ini saqlashda imkoniyatlar yaratilmagan cho'l, qum sharoitiga joylashtirilganligi tarixiy ma'lumotlar asosida aniqlangan;

Mintaqada paxta yakkahokimligining o'rnatilishi natijasida ko'chirilgan aholi va arzon ishchi kuchiga tayanib sug'orish inshootlari qurilganligi, mahalliy aholini nazoratga olish maqsadida boshqaruv-ma'muriy hamda huquq idoralari, sovet mafkurasini targ'ib qiluvchi madaniy-mafkuraviy muassasalar, ruxsatsiz o'z qishlog'iga qaytib ketganlarga nisbatan ma'muriy-qonuniy choralar ko'rilganligi tadqiqot davomida tarixiy ma'lumotlar bilan dalillangan;

Ko'chirilgan aholini mehnatga jalb etish maqsadida brigadalar, bo'lim boshliqlari ichidan "yanada ko'proq sotsialistik musobaqa" g'oliblarini mukofotlash tizimini yo'lga qo'yilishi orqali sovet tuzumini insonparvarlik g'oyalarni targ'ib etilishi, ammo paxta narxlarining yildan yilga pasayib borish holatlari, agrar sohada paxtadan boshqa ekinlar ekishga imkoniyat berilmaganligi ma'lumotlarga tayanib aniqlangan;

Surxon-Sherobod cho'llarini o'zlashtirish maqsadida ko'chirilgan aholiga uy-joy, madaniy-maishiy, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport sohasiga doir xizmat ko'rsatish tarmoqlarining yetishmasligi, o'zlashtirilgan yerlarga ko'chib kelgan aholining talab, taklif va milliy manfaatlarni himoya qilish sohasidagi murojaatlari inobatga olinmaganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Markazning O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi bilan bog'liq strategik maqsadlari, mintaqada yangi paxtakor tumanlarni tuzish uchun Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi, unga tog'li hududlar aholisining ko'chirilishi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan;

vohaga boshqa mintaqalaridan aholini ko'chirib keltirilish sabablari, mahalliy mutaxassislariga munosabat, qishloq xo'jalik texnikasidagi o'zgarishlar hamda ko'chirilgan aholining mashaqqatli turmush tarzini yangi dalillar asosida o'rganishga xizmat qiladi;

vohada sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan ko'chirish siyosatining ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi ma'lumotlar asosida ilk bora ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, ko'p turdagi tarixiy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi bilan bog'liq ko'chirish siyosatining amalga oshirilishi uning oqibatlari va natijalari vohada demografik vaziyatning o'zgarishi bilan bog'liq ma'lumotlar O'zbekiston tarixining ushbu davr bilan bog'liq o'rganilmagan jihatlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oliy ta'lim muassasalarida Sovet hukumatining O'zbekistonda paxtachilik bilan bog'liq ko'chirish siyosati hamda mintaqadagi demografik jarayonlar tarixi yuzasidan doir maxsus kurslar tashkil etish, ilmiy-amaliy loyihalarning bajarilishi va fundamental asarlar yaratilishiga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirishda sovet hukumatining ko'chirish siyosati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Sovet hokimiyatining qo'riq, bo'z yerlarni o'zlashtirishda Boysun, Oltinsoy, Denov rayonlaridagi tog', tog'oldi hududlari aholisining majburiy ko'chirish siyosatidan maqsad aholi o'rtasidagi ishsizlik, iqtisodiy qashshoqlikni oldini olish ekanligi, ularni uy-joy, o'qish, sog'lig'ini saqlashda imkoniyatlar yaratilmagan cho'l, qum sharoitiga joylashtirilganligi tarixiy ma'lumotlar asosida aniqlanganligiga oid ma'lumotlardan O'zbekiston teleradiokanalidagi "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-iyundagi 02-36-990-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarda sovet hukumatining ko'chirish siyosati bo'yicha ilmiy qarash shakllangan.

Mintaqada paxta yakkahokimligining o'rnatilishi natijasida ko'chirilgan aholi va arzon ishchi kuchiga tayanib sug'orish inshootlari qurilganligi, mahalliy aholini nazoratga olish maqsadida boshqaruv-ma'muriy hamda huquq idoralari, sovet mafkurasini targ'ib qiluvchi madaniy-mafkuraviy muassasalar, ruxsatsiz o'z qishlog'iga qaytib ketganlarga nisbatan ma'muriy-qonuniy choralar ko'rilganligi tadqiqot davomida tarixiy ma'lumotlar bilan dalillanganligiga oid ma'lumotlardan O'zbekiston teleradiokanalidagi "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-iyundagi 02-36-990-son ma'lumotnomasi). Natijada telekanal hujjatli asarlari mazmuni boyitilib, kelajakda ilmiy-ommabop filmlar yaratish uchun boy manba shakllangan.

Ko'chirilgan aholini mehnatga jalb etish maqsadida brigadalar, bo'lim boshliqlari ichidan "yanada ko'proq sotsialistik musobaqa" g'oliblarini mukofotlash tizimini yo'lga qo'yilishi orqali sovet tuzumini insonparvarlik g'oyalarni targ'ib etilishi, ammo paxta narxlarining yildan yilga pasayib borish holatlari, agrar sohada paxtadan boshqa ekinlar ekishga imkoniyat berilmaganligi ma'lumotlarga tayanib aniqlanganligiga oid ma'lumotlardan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limining 2022-2023-yillar "Suv va suv inshootlari tarixi"ni yoritishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 11-iyuldagi 02-22/662-son dalolatnomasi). Natijada, ma'naviy-targ'ibot manbalari boyitilib, ma'naviyat xodimlari uchun materiallar shakllantirilgan.

Surxon-Sherobod cho'llarini o'zlashtirish maqsadida ko'chirilgan aholiga uy-joy, madaniy-maishiy, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport sohasiga doir xizmat ko'rsatish

tarmoqlarining yetishmasligi, o'zlashtirilgan yerlarga ko'chib kelgan aholining talab, taklif va milliy manfaatlarni himoya qilish sohasidagi murojaatlari inobatga olinmaganligi dalillanganligiga oid ma'lumotlardan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limining targ'ibot bukletlarini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 11-iyuldagi 02-22/662-son dalolatnomasi). Natijada, aholi orasida ota-bobolarimizning yerlarni o'zlashtirish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelganligi bo'yicha tushuncha hosil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro konferensiya va seminarlarda hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 3 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 142 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sovet hukumatining paxtachilikni rivojlantirish bilan bog'liq siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari**" deb ataladi. Unda sovet davlatining O'zbekistonda paxta monopoliyasini kuchaytirish bilan bog'liq strategik maqsadlari va uning oqibatlari tahlil qilinadi.

Sovet hukumati mamlakat xalq xo'jaligini boshqarishni o'ta markazlashtirib, ma'muriy-buyruqbozlik tamoyillari asosida siyosat yuritdi. Bu siyosat jamiyatning va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish yo'liga to'siq bo'ldi. Umumdavlat manfaatlarini ro'kach qilgan holda sovet hukumati markazlashgan iqtisodiyotni shakllantirishga shu asosda mahalliy respublikalar iqtisodiyotini markazga qaram qilib qo'ydi.

1946-1958-yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, agrar sohani mexanizatsiyalash jarayonlari, paxta xarid narxlarining oshirilishi paxtachilikni taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi. Xususan, qishloq xo'jaligida kompleks mexanizatsiyalash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi tufayli 1958-1965-yillar oralig'ida O'zbekiston kolxozlarida mehnat unumdorligi 30 % ga,

sovxozlarda 49 % ga o'sdi. 1 sentner paxta xomashyosiga sarflangan mehnat xarajatlari 6,8 dan 4,6 kishi soatga qadar qisqardi<sup>4</sup>. 1954-yilda Surxondaryo oblast kolxozlari 767,3 mln. so'm (eski pul hisobida) sof daromad olishgan bo'lib, shuning 700,6 mln. so'mi paxta ekinzorlari hisobiga to'g'ri kelgan edi. 1965-yilda Surxondaryo oblasti dehqonchilikning o'zidan 176, 2 mln. so'm, 1973-yilda 271,3 mln. so'm daromad qilindi<sup>5</sup>.

1958-yilda oblast miqyosida jamoa xo'jaligi ishchisiga o'rtacha oylik daromadi 471 so'm 25 tiyin, yil davomida olgan o'rtacha daromadi esa 5655 so'mga yetgan. Bu yo'nalishda eng yuqori natijalar Jarqo'rg'on va Angor tumanlariga to'g'ri keldi. Mazkur hududlarda kolxoz ishchilariga yil davomida olgan o'rtacha daromadi esa 8179 so'm 3 tiyinga teng bo'lib, bu rayonlarda daromad oblast bo'yicha o'rtacha daromaddan 44.7% yuqori bo'lgan. 1958-yilda viloyatdagi har bir jamoa xo'jaligining daromadi 15 million so'mga yetdi<sup>6</sup>. Daromadning oshishi bilan Uzun tumanidagi "Kommunizm", Jarqo'rg'on tumanidagi "Mehnat-Rohat" va Angor tumanidagi "Qizil Yulduz" singari millioner jamoa xo'jaliklari soni ham sezilarli darajada ortdi<sup>7</sup>.

1950-yili Uzun rayonidagi 32 ta mayda kolxozlar birlashtirilib, "Kommunizm" kolxozi tashkil qilindi. "Kommunizm" kolxozi 1954-yilda 84216 gektar maydonga ega edi, shundan 5647 gektar ekinzor va 30603 gektar yaylovni tashkil etadi. Paxtachilik kolxoz xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy tarmog'ini tashkil etardi. Kolxozda har yili 3600 gektar maydonda paxta yetishtirilgan. Kolxozdagi mavjud 65 ta brigadaning 56 tasi paxtachilik bilan shug'ullangan. Agar 1929-yilda Surxondaryodagi barcha xo'jaliklar hammasi bo'lib 7-8 ming tonna paxta yetishtirgan bo'lsalar, birgina Kommunizm kolxozining o'zi 1956-yilda 14 ming tonna paxta yetishtirdi. Shu sababli ham 1957-yili Bobomurod Omonovga Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoni berildi<sup>8</sup>.

Respublikada paxta ishlab chiqarishning umumiy hajmi yildan yilga ortib borganiga qaramay, 1951-1955-yillarda hosildorlik o'smadi, balki uning pasayishi kuzatildi. Misol uchun, agar 1950-1953-yillarda respublikada har bir gektar paxta maydonidan o'rtacha 21,1 sentner hosil yig'ib olingan bo'lsa, bu raqam 1954-yilda 20,1 sentnerga, 1955-yilda esa 18,9 sentnerga tushib ketdi. Natijada paxtadan olinadigan umumiy mahsulot miqdori kamaydi: 1955-yilda 1954-yilga nisbatan 200 ming tonnaga kam paxta tayyorlandi<sup>9</sup>.

MTSlar terim davrida ham yetarli darajada yaxshi natijalarga erisha olmadi. Xo'jaliklar mashinada paxta terishni ko'pincha qo'llab-quvvatlamadi, bu esa paxta hosilini mashinada terib olish holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, 1953-yilda respublikada paxtani mashina bilan terish rejasi 27 %ga bajarildi<sup>10</sup>, 1955-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 17 %ni tashkil etdi.

<sup>4</sup> История Узбекской ССР. Том IV. – С. 342.

<sup>5</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – С. 107.

<sup>6</sup> Саъдуллаев С. Ўзбекистон меҳнаткашларининг пахтачиликни янада юксалтириш учун кураши (1959-1970 йиллар. Сурхондарё области мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 1975. – Б. 141.

<sup>7</sup> Yakubova D.T. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi va uning natijalari (1930-1990 yillarda Surxon vohasi misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – B. 93.

<sup>8</sup> Омонов Б., Пўлатов Й., Бобокулов Қ. «Коммунизм» колхози юксалишда. Илғор тажриба минбари. –Тошкент, 1974. – Б. 5-9.

<sup>9</sup> Раззоков А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи (Ўтмиш ва ҳозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 224.

<sup>10</sup> КПСС съездлари, конференциялари ва Марказий Комитет пленумларининг резолюция ва қарорлари. Т.6. 1941-1954. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б. 513

Markaz qanchalik zo‘r bermasin paxtachilik sohasini rivojlantirishning qator muammolari ham ko‘zga tashlana boshladi. Bu muammolar eng avvalo markaziy idoralar tomonidan joylardagi vaziyatni inobatga olmasdan chiqarilgan qarorlar hamda amaliyotdan uzoq buyruqlarning hosilasi bo‘ldi.

1957-yil 10-fevralda O‘zSSR Ministrlar Soveti va O‘zbekiston kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining “Yangi o‘zlashtirilayotgan qo‘riq va bo‘z yerlardagi paxta hosilini kontraktatsiya qilish shartlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda yalpi paxta hosilini oshirish va almashlab ekishni joriy qilish, qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish ishiga kolxoz va sovxozlarning mas’ul ekani hamda yangi o‘zlashtirilayotgan qo‘riq va bo‘z yerlardagi kolxoz va sovxozlarga paxta tayyorlash rejasi berilganida kontraktatsiya hosilini 8 sentnerdan belgilash, 1958-yildan boshlab besh yil mobaynida har yili 2 sentnerdan ko‘paytirish vazifasi yuklatildi.

Respublikada 1958-yilda 1440,8 ming gektar yerga chigit ekilgan bo‘lsa, 1961-yil oxiriga kelib, paxta maydonlari 1616,4 ming gektarga yetdi<sup>11</sup>. Qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish oqibatida Surxondaryo oblasti Gagarin rayonidagi Pravda kolxozi paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlaridan ancha yuqori hosil olishga erishdi. Masalan, 1961-yilda mazkur kolxoz 670 gektar maydonning bir gektardan 25 sentnerdan hosil oldi. Iskra kolxozi 520 gektar maydonga paxta ekib, gektaridan 27,4 sentnerdan hosil olishga erishdi<sup>12</sup>.

1970-yilda O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari davlatga 4 mln. 670 ming tonna paxta xomashyosini topshirdi. Shu yili respublika bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik 27,2 sentnerni tashkil qildi<sup>13</sup>.

KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Soveti “O‘zbekistonda 1971-1975-yillarda paxtachilik va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror qabul qildi. Unda paxtachilikni yanada rivojlantirish hamda yirik irrigatsiya qurilishi, sug‘orish tizimlarini texnik jihatdan qayta qurish va yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash masalasiga muhim e‘tibor qaratildi. 1971-1975-yillarda respublika paxtakorlari 24 mln. 500 ming tonna paxta topshirdi, bu esa rejada belgilanganidan 2,3 mln. tonna ko‘p paxta hosili edi. Paxtadan olinadigan hosildorlik tobora yil sayin ortib bordi: agar respublikada 1965-yilda har gektar yerdan 24,5 sentner paxta hosili olingan bo‘lsa, 1971-yilga kelib, u 28,5 sentnerni, 1976-yilda esa 30 sentnerni tashkil qildi. Shu yillarda Surxondaryo va Qashqadaryo oblastlarida har gektardan olingan o‘rtacha hosil 27,5 sentner, mashinada terilgan paxta 56670 tonnani tashkil qildi. 1976-1978-yillarda esa paxta hosildorligi 31,5 sentnerga yetdi, mashinada terilgan paxta hosili esa 68195 tonnaga to‘g‘ri keldi<sup>14</sup>. Shu davrda O‘zbekiston bo‘yicha eng yuqori hosildorlik Xorazm oblastiga to‘g‘ri kelib, har gektardan 36,5 sentnerni tashkil qildi.

1981-1985-yillarda respublikada yillik paxta yetishtirish hajmi 5723,2 ming tonnani, shu jumladan ingichka tolali paxta hosili esa 494,1 ming tonnani tashkil etdi. 1985-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 5380,3 va 564 ming tonnani tashkil

<sup>11</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Сбор. стат. мат. -Ташкент: Узбекистан, 1967. – С. 65

<sup>12</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 619-fond, 1-ro‘uxat, 78-ish, 2-varaq.

<sup>13</sup> Курбанов Ю. В борьбе за большой хлопок // Коммунист Узбекистана. – Ташкент, 1971. – №1, – С. 14; Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 г. Статистический ежегодник. –Ташкент: Узбекистан, 1981. – С. 105.

<sup>14</sup> Кодирхўжаев П., Лейбович В., Салимов Ф. Комплекс химиялаштириш тажрибаси // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1980. – №1. – Б. 16

etdi. 1983-yilda Surxondaryo oblastining Lenin yo‘li rayonida markazga 28 ming tonnadan ziyod, ya’ni rejadagidan 3200 tonna ko‘p paxta topshirdi. Rayonda har gektar yerning hosili 40 sentnerdan oshdi<sup>15</sup>. 1985-yilda Qashqadaryo oblastida paxta tayyorlash rejasi 253 ming tonna belgilangandi, ammo bu ko‘rsatkich 118 ming tonnaga bajarildi. Har bir gektardan rejadagi 25 % o‘rniga 14,1 % dan hosil olindi<sup>16</sup>.

Respublikada paxta yakkahokimligining kuchayishi qator oqibatlarni keltirib chiqardi. Bu jarayon paxtachilik sohasini keskin kuchayishiga, ekologik vaziyatni buzilishiga, yerlarning meliorativ holati yomonlashiga olib kelib, aholi salomatligiga jiddiy putur yetishida ko‘zga tashlandi. Mustaqillik arafasida respublikada paxta yakka hokimligining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlari keng jamoatchilik tomonidan tanqid qilina boshlandi<sup>17</sup>. Natijada, paxta ekiladigan maydonlarni qisqartirish takliflari bilan chiqa boshladi. Shu asosda asta-sekin paxta maydonlari qisqartirilib, o‘rniga boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirila boshlandi. Agar respublikada 1987-yilda 2 mln. 108 ming gektar yerga chigit ekilgan bo‘lsa, 1990-yilda 1 mln. 826 ming gektar yerda paxta yetishtirildi<sup>18</sup>.

Yangi yerlarni o‘zlashtirish oqibatida sug‘oriladigan maydonlarning sifati ham yomonlashib, yerning meliorativ holati o‘zgarib ketdi. Ayniqsa, ichimlik suvi sifati jiddiy tarzda ifloslandi, sug‘oriladigan ko‘plab yangi yer massivlarining o‘zlashtirilishi tufayli kuchli minerallashgan va ichishga yaroqsiz qaytma suvlarning hajmi ko‘payib bordi<sup>19</sup>.

Misol uchun, 1986-yilda Surxondaryo oblastida kuchli sho‘rlangan yerlar 36 ming gektarni, o‘rta sho‘rlangan yerlar 30 ming gektarni tashkil qilardi. Ularda yerosti suvini chiqarib yuborish masalasi hal qilinmaganligi uchun yer o‘ta darajada zaxlab ketdi. Qolaversa, qurilish boshqarmasi tomonidan o‘zlashtirilgan yerlar sifatsiz tarzda topshirilgan edi. 1987-yilning 1-yanvariga qadar bu yerlarda qurilmagan kollektorlar 87 km.ni, tugallanmagan yopiq drenajlar 654 km.ni, chala qurilgan sug‘orish tizimlari 184 km.ni tashkil etdi.

Markaz tomonidan olib borgan paxta yakkahokimligi siyosati tufayli O‘zbekiston, jumladan, Surxon-Sherobod vohasi ham markazning xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Surxondaryo oblasti bo‘yicha jami sug‘oriladigan yerlar 1985-yilda 285,6 ming gektarga yetdi. Bu ko‘rsatkich 1975-yilda 196,3 ming gektar edi. Yerning sho‘rlanishi kuchayib borishi tufayli 1985-yilda 280,8 ming gektar yerga dehqonchilik qilindi. Ana shu maydonlarning 240,3 ming gektari 1985-yilning paxta hosili uchun band qilingan edi. Shundan g‘allaga 37,3 ming (bahorgi va kuzgi bug‘doy uchun 16,3 ming, makkajo‘xori doni uchun 8,1 ming, sholi uchun 8,2 ming), g‘o‘zaga 154,9 ming, kartoshka, sabzavot va poliz ekinlariga 5,4 ming, beda uchun 42,4 ming gektar yer ajratildi<sup>20</sup>.

Agrar sohada hosildorlik oshgan bo‘lsa-da, ajratilgan yerlar aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash uchun yetarli emas edi. Aksincha, boshqa qishloq xo‘jaliklari mahsulotlarini yetishtirish kamaydi. Yaylovlarning katta qismi paxta

<sup>15</sup> Фидокорона меҳнат натижаси // Ўзбекистон кишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1984. – №1. – Б. 2.

<sup>16</sup> Шомансуров Х., Бабабеков А. Проблемы решать комплексно // Сельская правда, 28 мая 1986 г.

<sup>17</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 303.

<sup>18</sup> Икромов А. Кишлоқ иқтисодиёти самарадорлигини оширайлик // Ўзбекистон кишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1991. – №7. – Б. 2.

<sup>19</sup> Юсупов Э.Й., Азимов С.О., Акрамов З.М. ва бошқ. Орол мадад сўрайди // — Тошкент: Меҳнат, 1987. — Б. 9.

<sup>20</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 году. – С. 130-132.

ekiladigan maydonlarga aylantirildi, bu esa chorva mollari sonining qisqarishiga, aholining go'sht, sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari qondirilmashligiga sabab bo'ldi. Masalan, 1975-yilda oblastda 28,9 ming tonna sut olish rejalashtirilgan edi, amalda 9,2 ming tonna sut olindi<sup>21</sup>. Oblastning yirik chorvachilik markazi bo'lgan Boysun rayoni faqat 1990-yildagina davlatga go'sht topshirish rejasini bajara oldi, xolos. Ungacha 15 yil davomida rejani bajarish imkoni bo'lmadi, sut esa 84 foizga bajarildi. Lekin 1989-yilga nisbatan 115 tonna ko'p bo'ldi. 1990-yilda Boysun rayonida atigi 2 ming tonna g'alla yetishtirildi<sup>22</sup>. Oblast bo'yicha 1986-1989-yillarda ko'pgina xo'jaliklarda go'sht va sut topshirish rejalari barbod bo'ldi<sup>23</sup>. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, Surxondaryo oblasti o'z aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmay, chetdan olib kelishga majbur bo'ldi.

Xullas, paxta yakkahokimligining kengayib borishi tufayli qishloqda ekologik holat buzilib, aholining ijtimoiy turmush darajasi yomonlashdi. Qishloq xo'jalik ekin turlari ancha kamayib, aholining maishiy turmush sharoiti yomonlashdi. Dehqonlar o'z mehnatining samarasini ko'rishdan hatto umidini uza boshladi. Yetishtirilgan millionlab tonna paxta xomashyosi markazga tashib ketilishi tufayli O'zbekistonning markazga qaramligi kuchayib bordi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oblastda yangi yerlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq migratsion jarayonlar va uning natijalari”** deb ataladi. Unda Beshqo'ton, Sherobod va Qiziriq massivlarining o'zlashtirilishi bilan bog'liq migratsion jarayonlar tahlil qilinadi.

Sovet hukumati paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qo'riq va bo'z yerlarini o'zlashtirish borasida tadbirlarni ham jadallik bilan amalga oshirib bordi. Ana shunday harakatlardan biri sifatida asosiy e'tibor Surxon-Sherobod cho'llariga qaratildi. Shu davrda Surxon-Sherobod cho'llarining bir qismi bo'lgan Beshqo'ton massivini o'zlashtirish ishlari tog'li hududlarda yashayotgan aholini turli yo'llar bilan ko'chirish hisobiga kengayib bordi. Ushbu ko'chirish asosida paxta yetishtirishni ko'paytirish va yangi yerlarni kengaytirish maqsadi yotardi.

Tadqiq etilayotgan yillarda O'zbekistonning janubiy oblastlaridagi ichki migratsiya jarayonlari kuchaydi. Masalan, 1949-yil 3-martida Sherobod rayon ijroiya qo'mitasining “Tallimaron” massivini o'zlashtirish haqidagi qaror qabul qildi. Unga binoan tog'li Qizilolma, Laylogon, Sherjon, Poshxurt, Vandob, Zarabog', Qorabog' qishloqlarining aholisi yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirildi<sup>24</sup>. Surxondaryo oblastida paxtachilikni rivojlantirish maqsadida qo'riq yerlarni o'zlashtirish ishlari jadal olib borildi. 1949-1950-yillarda Zang kanalining yangi tarmog'i ishga tushirildi. Shu davrda uzunligi 18 km. bo'lgan bu kanalni qazish va suv chiqarish ishlari olib borildi. 90 kunlik qo'l mehnatidan keyin bu kanal qazib tugatildi<sup>25</sup>. Natijada qo'shimcha 7,5 ming gektar yer o'zlashtirildi.

1953-yildan boshlab Surxon daryosini bevosita ekin maydonlariga burish borasida ancha ishlar qilindi. Shu davrda Uchqizil suv ombori qurildi. Suv ombori Termiz rayonining Jdanov, Namuna kolxozlari va Termiz shahrini suv bilan ta'minlash imkonini

<sup>21</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – С. 309; Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 году. – С. 156.

<sup>22</sup> «Қишлоқ ҳақиқати» газетаси. 1991 йил 7 февраль.

<sup>23</sup> «Сурхон тонги» газетаси. 1991 йил 22 ноябрь.

<sup>24</sup> Бобоев М. Хўжанколик шифокор. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 27

<sup>25</sup> Бобоев М. Хўжанколик шифокор. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 27

berdi<sup>26</sup>. Shundan so‘ng 1954-yilning mart oyida Xo‘janqo qishloq aholisi yoppasiga majburiy tarzda Angor rayon “Tallimaron” massiviga birinchilardan bo‘lib ko‘chirildi<sup>27</sup>. 1954-yilda 270 oila cho‘lga ko‘chib kelgan aholi 1200 gektar yerga chigit ekib, 8 sentnerdan paxta hosili yetishtirildi.

1954-yili Sherobod–Beshqo‘ton cho‘lini o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida Boysun, Darband, Xo‘jabulg‘on, Machay qishloqlari aholisi ko‘chirildi. Jumladan, o‘sha yili Darband qishlog‘idan 150 ta xo‘jalik Gagarin (hozirgi Muzrabot) rayoniga ko‘chirib keltirilgan bo‘lsa<sup>28</sup>, 1955-yil 14-mart kuni Boysundagi “Yangiobod” qishloq kengashiga qarashli “G.Dmitrov” jamoa xo‘jaligi a‘zolarining umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan 100 xo‘jalik (400 kishi)<sup>29</sup>, 1955-yil 5-aprelda “Sayrob” qishloq kengashi, “Voroshilov” jamoa xo‘jaligidan 100 xo‘jalik, shu yilning 21-iyunida yana 57 ta oila (372 kishi) Beshqo‘ton massiviga ko‘chirildi<sup>30</sup>.

1956-yilda Beshqo‘ton massivida 5 ta kolxoz tuzildi. Bu kolxozlar 3233 gektar yerga chigit ekib, har gektaridan 9,4 sentnerdan hosil oldi. O‘sha yili Lenin, Jdanov, Voroshilov, Marks, Kirov nomli kolxozlarga Xolmurod Jo‘rayev, Normamat Mengliyev, Eronqul Avliyoqulov, Umarali Xo‘jaqulov, Orif Saidovlar raislik qilishdi. Bu kolxozlar moliyaviy-xo‘jalik jihatidan kuchsiz bo‘lganliklari tufayli 1957-yilning avgustida massivda birinchi davlat xo‘jaligi – “Beshqo‘ton” sovxozi tuzildi. Keyinroq u “Yangiobod” nomi bilan yuritiladigan bo‘ldi. Kolxozlar bo‘limga aylantirilib, sovxozga Normamat Mengliyev direktor etib tayinlandi<sup>31</sup>.

XX asrning 50-yillarning oxirlarida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish jarayonida Beshqo‘ton, Muzrabot, Istara dashtlarida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mintaqada yirik suv omborlaridan biri 800 million kubometrli Janubiy Surxon suv ombori ishga tushdi. Suv omboridan Sherobod cho‘llariga qadar tekislik va qir-adirlar oralab sekundiga 110 kubometr suv o‘tkazadigan 27 kilometrli magistral kanal o‘tkazildi<sup>32</sup>.

1968-yil 25-dekabrda Surxon-Sherobod cho‘lida tuzilgan yangi tumanga Gagarin nomi berildi. Dastlab uning tarkibiga 4 ta paxtachilik va 1 ta sholichilik xo‘jaliklari birlashtirildi. Cho‘lda yangi rayonning tashkil topishi bu yerga ishlash uchun kelganlarning safi ko‘payib bordi. Yangi qishloqlar barpo etila boshlandi, xalqning turmushi yaxshilanib bordi. Rayon shakllana borgan sari, yangi-yangi tashkilotlar, idoralar, muassasalar tuzildi. 1969-yil 1-iyuldan rayonning birinchi gazetasi – “Mehnat zafari” (hozirgi “Muzrabot”) chiqa boshladi. Tajribali kadrlar joy-joyiga qo‘yildi.

1969-yilda Gagarin rayonida 24 ming gektar yerga dehqonchilik qilingan. O‘sha yili 17 ming 600 gektar maydondan 32 ming tonna paxta topshirildi. XX asrning 80-yillariga kelib paxtaning yalpi hosili 67 ming tonnadan ham oshib ketdi<sup>33</sup>.

Gagarin rayonida irrigatsiya va melioratsiya ishlarini to‘la amalga oshirishga erishish uchun 3 ta qurilish tashkiloti ish boshladi. “Yangiobod” sovxozi hududida

<sup>26</sup> Лапасов А. Истиклол йўли: Ангор. – Термиз: Жайхун, 1992 й. – Б. 4-5

<sup>27</sup> Бобоев М. Хўжанқолик шифокор. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 28

<sup>28</sup> Шоимов П. Дарбанд – қадимий макон. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 13.

<sup>29</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 474-fond, 1-ro‘uxat, 6-ish, 3-varaq.

<sup>30</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 474- fond, 1-ro‘uxat, 16-ish 13-varaq.

<sup>31</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro‘uxat, 22-ish, 55-varaq.

<sup>32</sup> Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. Очерклар. IX китоб. – Т.: Ўзбекистон, 1980. – Б. 461.

<sup>33</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro‘uxat, 61-ish, 25-varaq.

joylashgan 3-mexanizatsiyalashgan ko'chma jamlanma vohadagi ixtisoslashgan birdan-bir qurilish tashkiloti bo'lib, u ochiq zovurlar qazish, yopiq kollektorlar barpo etish bilan minglab gektar yerdagi sho'r suvlarni qochirishga, yerning meliorativ holatini yaxshilashga muvaffaq bo'ldi<sup>34</sup>. Birgina "Yangiobod" sovxozida 3000 gektarga yaqin maydonga yopiq kollektorlar o'rnatilganligi, zovurlar qazilganligi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta yordam berdi. 2-mexanizatsiyalashgan ko'chma jamlanma ishchilari esa yangi yerlarni tekislash, paxta maydonlarini kengaytirish uchun faoliyat olib bordi.

1970-yilga kelib, Surxon-Sherobod vohasida 51 ming gektar yangi yer o'zlashtirildi. Shundan 40 ming gektari Sherobod dashtiga to'g'ri keldi. 1970-yilda davlatga 335 ming tonna, ya'ni 1965-yilga nisbatan 80 ming tonna ko'p paxta topshirildi. Jumladan, 1970-yilda ingichka tolali paxta 76 ming tonnaga yetdi. Paxta yetishtirish uchun 230 million so'm mablag' sarflandi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda zamonaviy uylar, keng ko'chali shahar tipidagi aholi manzilgohlari paydo bo'ldi. Yangiobod, Gagarin, Komsomolobod, Sovetobod, A.Nabiyev, Lenin, Oxunboboyev nomli sovxozlarda dam olish va madaniyat istirohat bog'lari, maktablar, xalq teatrlari, kinoteatrlar, klublar, kasalxonalar, poliklinikalar, madaniyat uylari paydo bo'ldi. Sherobod dashtida yangi o'zlashtirilgan yerlarda aholi uchun 410 ta zamonaviy uy-joylar, 140761 m<sup>2</sup> yashash joyi, 1930 o'rinli maktab, 1540 o'rinli bog'chalar, 1800 o'rinli kino maydonchalari, 250 o'rinli shifoxonalar, 1400 o'rinli yozgi va qishki klublar foydalanishga topshirildi<sup>35</sup>.

Qiziriq va Sherobod cho'llarini suv bilan ta'minlash uchun 100 km. uzunlikdagi Sherobod mashina-magistral kanali barpo etildi<sup>36</sup>. Natijada Qiziriq cho'llarini o'zlashtirish ishlari ham avj oldi. Cho'lni o'zlashtirish bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy-maishiy kommunikatsiya tarmoqlari, iqtisodiy va madaniy inshootlar, turar joy va yo'l tarmoqlari ham barpo etib borildi. Cho'lni kesib o'tgan va Toshkent–Termiz va Termiz–Dushanbe avtomobil magistral yo'liga borib qo'shiladigan yangi avtomobil yo'li qurilib foydalanishga topshirildi<sup>37</sup>. Cho'lda o'zlashtirilgan dastlabki ekin maydonlariga birinchi navbatda paxta ekildi.

Sherobod mashina-magistral kanaliga suv uzatuvchi nasos stansiyasining birinchi navbati ishga tushirilib, dastlabki 11000 gektar yerda qishloq xo'jaligi maydonlari shakllantirildi. Qiziriq cho'llariga Sherobod, Angor, Denov va Sariosiyo rayonlaridan odamlar ko'chib kelib, dehqonchilik qila boshladi<sup>38</sup>.

Shu tariqa hali Lenin yo'li tashkil topmasdan ancha oldin bir necha xo'jaliklar, jumladan, Shreder nomidagi mevachilik, uzumchilik, vinochilik ilmiy tekshirish institutining Bandixon tajriba xo'jaligi, keyinchalik go'sht yetishtirishga ixtisoslashtirilgan chorvachilik xo'jaligi barpo etildi<sup>39</sup>.

1971-yildan e'tiboran Qiziriq cho'lini o'zlashtirishda qashqadaryoliklar ham ishtirok eta boshladilar. Dehqonobod rayonidan 100 dan oshiq dehqon oilalari Q.Rahimov davlat xo'jaligi hududida joylashdilar. 1972-yilda esa, Dehqonobod

<sup>34</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro'yxat, 181-ish, 41-varaq

<sup>35</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro'yxat, 32-ish, 52-varaq

<sup>36</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro'yxat, 36-ish, 128-varaq

<sup>37</sup> "Ленин байроғи" газетаси, 1975 йил сентябр

<sup>38</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi 474- fond, 1- ro'yxat, 61-ish, 25-varaq

<sup>39</sup> Вестник статистики . 1980 йил декабрь. – Б. 7

rayonidagi bir guruh oilalar yangi tashkil etilgan “Progress” nomli sovxozga ko‘chib keldi.

Ushbu xo‘jaliklar hududlarida bir qancha turar joylar, qo‘rg‘onlar, maktablar, bolalar bog‘chalari, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, mashina traktor parklari va boshqa xo‘jalik korxonalari barpo etildi. Yerlarning jadal suratlar bilan o‘zlashtirilishi tufayli Qiziriq cho‘lida ham ma‘muriy rayon tashkil etish uchun yetarli shart-sharoitlar vujudga keldi. O‘zbekiston SSR hukumatining 1975-yil 6-martdagi qaroriga muvofiq o‘zlashtirilgan cho‘l hududida Lenin yo‘li (hozirgi Qiziriq) rayoni tashkil etildi<sup>40</sup>. O‘sha paytda rayonda 44 ming gektar yer maydoni bo‘lib, 26 ming aholi yashar edi. Bundan tashqari, 1 ta markaziy kasalxona, 20 ta davolash punktlari, 21 ta maktab, 6 ta kutubxona bor edi. Rayon tarkibiga 6 ta sovxoz kirar edi<sup>41</sup>.

Lenin yo‘li rayonini tashkil etilishida Normo‘min Turopov, Abdusattor Hayitov, A.Antones, E.Tursunov, Oytoshxon G‘iyosova, Halil Isayev, Shaydulla Jumanazarov, Qarshi Choriyev, Sa‘dulla Zulfiqorov, Abdurahmat Musayev, Rustam Omonov, Mamarajab Normo‘minov, Muxtor Qilichev, Mamlakat Begmatova, Mamatqobil Ahmedov, Mirza Gulboyev, Muhabbatxon Toshxo‘jayeva, Xudoynazar Umarov, Pari Nosirova, Jovli Sattorov kabi insonlarning xizmati katta bo‘ldi.

